ISAJON SULTONNING "BILGA XOQON" ROMANI VA UNING BADIIY MOHIYATI

Mahkamova Dilafruz Shavkat qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
1-kurs tayanch doktoranti
dilafruz-mahkamova@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Isajon Sultonning "Bilga Xoqon" asari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda turkiy xalqlarning buyuk davlat arbobi Bilga Xoqon obrazi badiiy talqinda yoritilib, uning adolatparvarlik, donolik va vatanparvarlik fazilatlari asosiy g'oya sifatida ko'rsatib beriladi. Muallif tarixiy voqealarni qayta jonlantirish orqali o'quvchini birlik, bilim va ma'naviyatning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni haqida mushohada yuritishga chorlaydi. Asar bugungi kunda ham milliy o'zlikni anglash, yosh avlodni vatanparvarlik va ma'naviy barkamollikka yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Bilga Xoqon, Isajon Sulton, tarixiy roman, birlik g'oyasi, ma'naviyat, rahbarlik madaniyati, adolat, turkiy xalqlar.

Annotation. This article provides a scholarly analysis of Isajon Sulton's work *"Bilga Khagan."* The image of the great statesman of the Turkic peoples, Bilga Khagan, is artistically depicted, emphasizing his qualities of justice, wisdom, and patriotism. Through the revival of historical events, the author encourages readers to reflect on the significance of unity, knowledge, and spirituality in social development. The work is also valuable today as it promotes national identity, patriotism, and moral maturity among the younger generation.

Keywords: Bilga Khagan, Isajon Sulton, historical novel, idea of unity, spirituality, leadership culture, justice, Turkic peoples.

O'zbek adabiyotida tarixiy mavzularni badiiy talqin qilish jarayoni doimiy ravishda dolzarb hisoblanadi. Chunki tarixiy shaxslar, voqealar va ularning ijtimoiy-ma'naviy mohiyati nafaqat o'tmishni anglash, balki bugungi avlodni ma'naviy tarbiyalashda ham muhim vosita sanaladi. Isajon Sultonning "Bilga Xoqon" asari ana shunday asarlardan bo'lib, unda turkiy xalqlarning buyuk hukmdori, donishmand davlat arbobi Bilga Xoqon obrazi yaratilgan.Roman dastlab „Sharq yulduzi" jurnalining 2019-yilgi 9- va 10-sonlarida bosilib chiqqan.[1] Shunigdek, roman Turkiyaning Bursa shahrida Turk til qurumi[2], Turk davlatlari kengashi, Turkiya

madaniyat va turizm vazirligi[3], Otaturk nomidagi madaniyat, tarix va til yuksak qurumi tomonidan o‘tkazilgan „Tilda, fikrda, ishda birlik — turkiy dunyo adabiyot (roman) mukofotlari“ tanlovida g‘olib deb topilgan. [4] 2022-yili „Factor Books“ nashriyotida „Bilga xoqon“ romani yagona kitob holida chop etilgan.[5] Isajon Sultonning “Bilga xoqon” romani o‘zbek adabiyotida shu mavzuda yaratilgan ilk tarixiy-biografik asar hisoblanadi.

Asar muqaddima va uch bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limda “Kichik yish”(yish so‘zi “o‘rmonzor”, “daraxtzor” degan ma’noni bildiradi), “So‘zchilar”, “O‘tukan yish”, “Bilga xoqonning o‘tmishi”, “Yig‘in”, “Ko‘gman tog‘i”, “Inigach ko‘l yoqasidagi savash”, “Yishga qaytish”, “Ishbara Yamtarning o‘tmishi”, “Tabg‘achning o‘tmishi”, “Meyli Chur”, “O‘n o‘qqa yurish”, “Yaris cho‘lida urush”, “Kishi o‘g‘li o‘tmishi”, “Ko‘kyol ona bo‘ri”, “Bayram” voqealari aks ettirilgan. Ikkinchi bo‘limda 4 ta asosiy voqealar tasvirlangan bo‘lib: “Tabg‘ach”, “Bilga Xoqon so‘zlari”, “Tabg‘achga yurish”, “Yasa” kabi hodisalar tasviriga bag‘ishlangan. Uchinchi bo‘limda “Mangu bitiklar”, “Kul Tigin bitigi”, “Bilga Xoqon” bitigidagi voqealarning asil tafsilotlari va matni keltirilgan.

Isajon Sultonning *Bilga Xoqon* romani turkiy xalqlarning o‘n uch asrdan ortiq davr mobaynidagi ijtimoiy-ruhiy kechinmalarini badiiy ifodalashga qaratilgan asardir. Muallif O‘rxun-Enasoy toshbitiklarida qayd etilgan tarixiy ma’lumotlarni roman matniga mahorat bilan singdirib, qadimgi turk davrining siyosiy va ma’naviy manzarasini yoritishga erishadi. Asarda qahramonlarning milliy xarakteri, ularning mardlik, jasorat va turkona fazilatlari realistik tasvirlangan.

Muallif asarning tiliga alohida e’tibor qaratib, unda arabcha va forscha so‘zlarni qo‘llamagan, balki uni sof turkiy til asosida yaratgan. Bu jihat asarning milliy qadriyatlarga sodiqligini va tarixiylik tamoyiliga yaqinligini ko‘rsatadi. Roman mazmunida turk xalqlarining birlik, qahramonlik, sadoqat va fidoyilik an’analari badiiy talqinda o‘z ifodasini topgan.

Asarning birinchi bo‘limining birinchi qismi “Kichik yish” deb nomlangan bo‘lib, u “Ko‘gman tog‘i etaklariga qish bola tashlagan, qor momog‘uldurak bilan yoqqan edi” jumlasi bilan boshlanadi. Roman kirish qismida tasvirlangan Ishbara Yamtar va Bulut obrazlari turk buduniga xos xarakter va milliy fazilatlarni mujassam etgani bois alohida ahamiyat kasb etadi. Bu obrazlar orqali muallif qadimiy turkiy jamiyatning ijtimoiy-ruhiy qiyofasini ta’sirchan yoritishga muvaffaq bo‘ladi. Muallif asarda Bilga Xoqonni shunchaki tarixiy shaxs sifatida emas, balki millat rahbari, xalq birligi va davlat mustaqilligi timsoli sifatida tasvirlaydi. U adolatparvar, xalq manfaatini himoya qiluvchi, bilim va tafakkurni qadrlovchi hukmdor sifatida gavdalanadi. Isajon Sulton

obraz orqali ideal rahbar qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi fikrlarni ham ilgari suradi. Asarda tarixiy voqealar, qadimiy turkiy davlatlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti tasvirlanarkan, ular zamonaviy o‘quvchi ongida ham dolzarb ma’no kasb etadi. Bilga Xoqon faoliyatida ilm, donolik va birlikka asoslangan rahbarlik tamoyillari yoritilib, bu qadriyatlar bugungi kun jamiyatida ham muhim ahamiyatga ega ekani ko‘rsatiladi. Asar voqealari tarixiylik tamoyiliga tayanib qurilgani bois, yozuvchi ortiqcha hissiy bo‘yoqlardan, dabdababoz tasvirlardan yiroq turadi. Isajon Sulton Bilga Xoqon, To‘nyuquq va Kul Tigin obrazlarini ideallashtirmay, ularning haqiqiy qiyofasini ochib berishga intiladi. Roman mazmunida qadimgi ko‘kturk xoqonligi davri, milliy qahramonlar Bilga Xoqon, Kul Tigin va Bilga To‘nyuquqning hayot yo‘li, shuningdek ilk ko‘kturk davlatining shakllanish jarayoni va “turk yasa” qonun-qoidalarining joriy qilinishi badiiy talqin etilgan.

Asarda O‘rxun–Enasoy bitiklari yaratilishi, ularning ijtimoiy-tarixiy mazmuni ham alohida o‘rin tutadi. Syujet voqealari Bilga Xoqon boshchiligida turkiy qabilalarning birlashuvi, tabg‘achlarga qarshi olib borilgan kurashlar va erishilgan g‘alabalar, mustaqil davlat tuzilishi hamda “yasa”ning joriy qilinishi, nihoyat xoqonning xiyonat oqibatida halok bo‘lishi kabi tarixiy jarayonlarni qamrab oladi.

Bilga Xoqon obrazi, asarda uning adolatparvar va millatparvar hukmdor sifatidagi fazilatlari Eltarish Xoqon hamda Kul Tigin obrazlari bilan uyg‘unlikda mukammal ochib berilgan. Yozuvchi qahramonlarni shaxsiy ideal sifatida emas, balki tarixiy voqelikning faol ishtirokchilari, millat taqdirini belgilagan arboblar sifatida tasvirlashga erishgan.

Asar muqaddimasi turk xalqining ulug‘vorlikka bag‘ishlangan ta’rifi: “*Butun yer yuzi bir kishi og‘lining qizil qoniga arzimaydi”* bilan boshlanadi. So‘ngso‘zda ham xalqni qat’iyatli bo‘lishga undovchi jumlalar bilan tugaydi :

“Ha, mening o‘zimcha bitgan bitiklarim shulardir. Uni shu bitiktoshga urdim. Ulusini tiriltirgan, yerli-suvli, elli-tilli qilgan, urug‘ini quritishga qo‘ymagan keng yurakli xoqon so‘zlarini esa, eng ustga bita qoldim. El-ulus to‘g‘risidagi unday so‘zlar eng ustga bitilmasa, qayga bitilsin?

—Ustda ko‘k bosmagan bo‘lsa, ostda yer tilinmagan bo‘lsa, ey budun, elingni, to‘ringni kim buza olur?

—Ey budun! Titra, o‘zingga kel! —Tiklan! Mangu yasha!..”[6]

Keltirilgan parcha *O‘rxun-Enasoy bitiklari* ruhida yozilgan bo‘lib, unda hukmdorning xalq oldidagi mas’uliyati va millat taqdiri haqidagi mulohazalar ifoda etiladi. Muallif “ulusini tiriltirgan, yerli-suvli, elli-tilli qilgan” degan ta’rif orqali

xoqonning elni birlashtirish, davlatni mustahkamlashdagi ulkan xizmatlarini ta'kidlaydi. Bu jumlalar hukmdorni shaxsiy qahramon emas, balki xalqning taqdirini belgilovchi arbob sifatida ko'rsatadi. "Ustda ko'k bosmagan bo'lsa, ostda yer tilinmagan bo'lsa" kabi tasviriy iboralar qadimgi turkiy dunyoqarashda osmon va yerning muqaddasligi, davlat va xalqning mustahkamligi timsoli sifatida talqin etiladi. Ushbu tasvir orqali muallif davlatning barqarorligi tabiat va kosmik tartib bilan uyg'unlikda ekanini ifodalaydi. Shuningdek, "Ey budun! Titra, o'zingga kel! Tiklan! Mangu yasha!" kabi chaqiriqlar asarning mafkuraviy mazmunini ochib beradi. Bu murojaatlar o'z davrida xalqni uyg'otishga, birlik va tiklanishga chorlagan bo'lsa, bugungi kunda ham ular milliy uyg'onish va vatanparvarlik g'oyalari bilan hamohangdir. Demak, parcha o'zida nafaqat tarixiy haqiqatni, balki umumlashgan ma'naviy-mafkuraviy qadriyatlarni ham mujassam etadi.

Asarda keltirilgan quyidagi jumlalar ham diqqatga sazovordir: *"Turk budun, to'g'ri bo'l – ezgu bo'lasan. Uyinga kirasan, qayg'usiz bo'lasan. Shundan so'ng Tabg'ach xoqonning o'yuqchisi kelsin, dedim. Tabg'ach xoqon so'zimni ikki qilmadi, o'yuqchisini yubordi. Unga ozga bir tosh yasatdim, ichiga-tashiga bitik urdirdim. O'n o'q o'g'illari, ozg'alar, buni ko'rib-bilingiz! Mangu tosh o'ydirib yozdirdim. Ko'nglimdagi so'zimni yozdirdim. Ko'nglimdagi so'zim shudir:*

—Turkiydan qul bo'lmas!

—Turkiydan qul bo'lmas!

—Turkiydan qul bo'lmas!"

Ushbu parcha qadimgi turkiy epigrafik yodgorliklar poetikasiga mansub bo'lib, unda xalqning siyosiy-mafkuraviy ongini shakllantirishga qaratilgan nutqiy vositalar mujassamdir. Matnda imperativ uslub ("to'g'ri bo'l – ezgu bo'lasan") orqali xalqni axloqiy tozalik, birlik va ezgulikka undash kuzatiladi. Bitiktoshning yaratilishi haqida berilgan ma'lumotlar esa qadimgi turkiy davlatchilikda epigrafik yozuvning nafaqat tarixiy xotira, balki legitimatsiya vositasi *(Legitimatsiya (lotincha legitimus – "qonuniy", "asosli") – bu hokimiyatning, qarorlarning yoki siyosiy tuzumning qonuniy va asosli deb tan olinishi jarayonidir. Oddiy qilib aytganda: xalq, jamiyat yoki boshqa davlatlar tomonidan hukmdor yoki davlat hokimiyatining "to'g'ri, adolatli, qonuniy" deb qabul qilinishi.)*sifatidagi funksiyasini ko'rsatadi. "Ichiga-tashiga bitik urdirdim" degan jumla xoqon hokimiyatini abadiylashtirish va uni kosmik tartib bilan bog'lash ramzi sifatida talqin qilinadi. "Turkiydan qul bo'lmas!" kabi anaforik takror milliy g'oya va ijtimoiy mustaqillik konsepsiyasini ta'kidlaydi. Bu jumla milliy identitetni mustahkamlash, turkiy xalqning erkinlik va davlatparvarlik tamoyillarini

falsafiy darajada ifodalashga xizmat qiladi. Demak, ushbu matn nafaqat tarixiy hujjat, balki siyosiy-ma'naviy manifest sifatida ham qadrlanadi. U qadimiy turkiy davlatchilik ideologiyasida xalq birligi, milliy mustaqillik va adolatparvarlikni targ'ib etuvchi muhim manbadir.

Asarda erkinlik, ozodlik g'oyalariga alohida urg'u berilgan bo'lib, uni quyidagi jumalar orqali ham ifodalanganini sezish mumkin: "*Yoshi ulug' shu oqsoqol o'tloqlarni enlab, tog'-u toshni titratguday hayqirib yubordi. Ko'zidan yoshi oqar edi.*
– Yurtni bergan Tangrim, yurtimni mangu qil!
– Elni bergan Tangrim, elimni mangu qil!
– Boshini tik qil!
– O'zini to'kis qil! Kishilar uzoq yillardan beri bunday sevinch nimaligini bilmas edilar. Uning oldida to'qlik-to'kislik sevinchi hech narsa emas ekan-da? Erklik, o'zlik sevinchiga teng bo'lolmas ekan-da!"

Mazkur parcha epik ruhda yozilgan bo'lib, unda xalqning orzu-intilishlari va milliy ongini ifoda etuvchi badiiy vositalar ishlatilgan. Oqsoqol obrazida xalqning donishmand vakili tasvirlanadi, uning hayqirig'i esa xalqning dardi va quvonchini ifodalovchi ramziy kuchga ega. "Yurtimni mangu qil!", "Elimni mangu qil!" kabi murojaatlar takror (anafora) usulida berilgan. Bu usul orqali xalqning birlik va abadiylikka bo'lgan intilishi yanada kuchliroq aks etadi. "Tog'-u toshni titratguday" kabi ifodalar esa giperbola bo'lib, xalqning kuch-qudratini oshirib ko'rsatadi. Parchada moddiy farovonlik ("to'qlik-to'kislik") erkinlik va milliy o'zlik bilan taqqoslanadi. Bu qarama-qarshilik (antitezis) vositasi orqali erkinlikning moddiy boylikdan ustun qadriyat ekanligi ko'rsatiladi. Shuningdek, hayqiriq, murojaat, takror kabi vositalar parchaning oratorlik ohangini kuchaytirgan. Bu esa uni oddiy badiiy matndan ko'ra, xalqni uyg'otishga chaqiruvchi nutqqa aylantiradi.

Quyidagi jumlalar ham adabiy tahlilga tortilish jihatdan diqqatga sazovor: *"Qattiq qish o'z yoyini olib tevarakka muz o'qlarini otgan, qordan to'siq yasab, izg'irin cherigini yoygan kez, ikki to'p otliq To'qqiz o'g'uz yeridan chiqib, bir qismi Yaris cho'lidan o'tib Shantungga, Tabg'ach eliga, yana biri undan-da yiroqqa – jangju xoqoniga so'z yetkazish uchun elgan edi. Shantungga, tabg'achlar qoshiga yo'nalgan erning oti To'ngra Sam, jangju xoqoniga yo'l solgan kishi esa Kuna Sangun edi...*"

Qadimgi turkiy manbalarda tabiat hodisalari ko'pincha insoniylashtirilgan holda tasvirlanadi. Matnda uchraydigan "qattiq qish o'z yoyini olib tevarakka muz o'qlarini otgan, qordan to'siq yasab, izg'irin cherigini yoygan" satrlari buning yorqin misolidir. Qish bu yerda oddiy fasl emas, balki jangchi timsolida gavdalanadi. U yoy, o'q va

lashkar kabi atributlarga ega bo‘lib, insonning tabiat bilan kurashini ifodalaydi. Bu holat personifikatsiyaning yorqin namunasidir. Tabiatning shiddatli tasviri ortidan ikki qahramonning safarga chiqishi tasvirlanadi. To‘qqiz o‘g‘uz yurtidan elchilik vazifasida yo‘l olgan otliqlardan biri Shantungdagi Tabg‘ach eliga, ikkinchisi esa yanada olisdagi jangju xoqoniga xabar yetkazishga otlanadi. Ularning ismlari – To‘ngra Sam va Kuna Sangun – tarixiy va mifologik ohangga ega bo‘lib, qahramonlik ruhini kuchaytiradi. Matnda kompozitsion jihatdan avval tabiatning murakkab, og‘ir sharoiti beriladi, keyin esa shu sharoitda amalga oshirilayotgan mashaqqatli safar voqeasi ko‘rsatiladi. Bu uslub qadimgi turkiy epik manbalarga xos bo‘lib, voqealarning qahramonlik va dramatik kuchini oshiradi. Shuningdek, bu parcha qadimgi turkiy xalqlarning davlatlararo munosabatlari, diplomatiya va elchilik an’analarini ham yoritib beradi. Elchilar oddiy odam emas, balki xalqqa xizmat qiluvchi, muhim siyosiy topshiriqni bajarayotgan shaxs sifatida gavdalanadi. Demak, bunday tasvirlarda faqat tabiat va qahramon emas, balki davlat, xalq va siyosiy tarix ham mujassamdir. Mazkur parcha qadimgi turkiy adabiyotning epik ruhini, obrazlilik imkoniyatlarini va tarixiy-badiiy uyg‘unligini yaqqol ifodalaydi. Qishning antropomorf (*yunoncha anthropos – “inson”, morphe – “shakl, qiyofa” – bu adabiyot va san’atda insoniy sifatlarni hayvon, buyum, tabiat hodisalari yoki mavhum tushunchalarga berish hodisasi)* obrazga aylanishi va elchilarning qahramonona safarga otlanishi birgalikda xalq dostonlariga xos yuksak dramatizmni yuzaga keltiradi.

Quyidagi jumlani tahlil qilamiz: “*Jangju – sochini qamchiga o‘xshatib o‘rib yuradigan, ot duminini xotinlar sochiday o‘rib-bezaydigan, urishgisi kelmaydigan el edi. Turkiylar jirkanadigan neki bor, barini yeyishlari bilan taniqli edilar. Eshak, to‘ng‘izdan tortib ilon-u echkemargacha yegani uchun turkiylar ularni yoqtirmas, to‘qnash kelinganida shundayin qattiqlik bilan o‘ldirar edilarki, unday qattiqlik birovga qilinmasdi. Tabg‘ach yerlari eski O‘tukan ila tutash bo‘lgani uchun tabg‘achlar-u jangjular qiyqira-qiyqira bosib kelib qolishar, biroq, eli-xoqoni tegrasida turkiylar singari jipslasholmagani uchun tiraqaylab qochar, qochish barobarida yish-u qo‘rg‘onlarni talab ketishardi.”* Qadimgi turkiy manbalarda qo‘shni xalqlar tasviri ham alohida o‘rin tutadi. Masalan, jangjular haqida berilgan tasvirlarda ularning hayoti, urf-odatlari va zaif jihatlari ko‘rsatiladi. Jangju xalqi sochini qamchiga o‘xshatib o‘rib yurishi, ot dumini esa ayol sochiga o‘xshatib bezashi bilan eslatib o‘tiladi. Ular jang qilishni istamaydigan, lekin turkiylar jirkanadigan barcha narsalarni yeyishi bilan tanilgan el sifatida ko‘rsatiladi. Ayniqsa, eshak, to‘ng‘iz, ilon va echkemar kabi hayvonlarni iste’mol qilishi ularning manfiy qiyofasini yanada kuchaytirgan. Turkiylarning ularga munosabati ham qat’iy bo‘lgan: to‘qnash

kelinganida jangjular nihoyatda qattiq jazolangan. Matnda ta'kidlanishicha, bu darajadagi shafqatsizlik boshqa hech kimga qilinmagan. Bu orqali turkiylarning o'z dushmanlariga qarshi qat'iyatli va qudratli ekanligi ifodalanadi. Bundan tashqari, jangjularning tarqoqligi, o'z xoqonlari atrofida jipslasholmasligi ularning zaifligini ko'rsatadi. Turkiylar esa, aksincha, jipslashib, birlashib harakat qilgani sababli kuchli va mustahkam el sifatida tasvirlanadi. Demak, jangju obrazi va turkiylar qiyoslanib qadimgi turkiy adabiyotda turkiylarning axloqiy pokligi, birlikdagi qudrati va g'ururi yuksak qo'yilgan.

"Bir necha kun yoqqan qor tingach, ko'kka Oymomo chiqdi. U yer yuziga oq sovuqlarni yubordi. O'g'ochlar-u o'tlarni bulduruqlar bilan bezadi, yov kabi bildirmay kelib, suv betiga Tabg'achning bezaklari kabi bezaklar chizdi, ichidagi suvi to'kilmay qolib ketgan idishlarni tars-tars yordi, qorni shunday to'ng'itdiki, oyoq ostida kumushday g'ichirlab sochilar bo'ldi. Qoraqushlar turgan yerida to'p-to'p o'lib tushdi. Yishning jonliqlari bir-biriga suqilishib, dir-dir titrab jon saqlashdi. Ishbara o'tin yoray deb boltasini o'roqqa ursa, taraqlab sapchib qaytishini ko'rib: —Shuncha yil yashab o'tin muzlaganini ko'rmab edim – dedi angrayib. Ko'klamoyim kelgunicha to'qqizta yetti kun bor... O'ylay-o'ylay, Ishbara bilan Bulut O'tukan yishga, Bilga xoqon qoshiga borishga cho'glanishdi."

Bu parcha qadimgi turkiy adabiyotning tabiat tasviriga boy namunasidir. Matnda qish manzarasi o'ziga xos poetik bo'yoqlar bilan beriladi: "Oymomo chiqib, yer yuziga oq sovuqlarni yubordi", "suv betiga bezaklar chizdi", "oyoq ostida kumushday g'ichirlab sochildi" kabi obrazlar qishning shiddatini va go'zalligini uyg'unlashtiradi. Qor va sovuqning tasviri oddiygina fasl manzarasi emas, balki dushman lashkari kabi hujum qilayotgan kuch sifatida gavdalanadi. Tabiat hodisalari nafaqat tashqi ko'rinish, balki inson va hayvon hayotiga ko'rsatgan ta'siri orqali ham tasvirlanadi. "Qoraqushlar turgan yerida to'p-to'p o'lib tushdi", "jonliqlar bir-biriga suqilishib, dir-dir titrab jon saqlashdi" jumlalari orqali sovuqning halokatli oqibatlari ko'rsatilgan. Qahramon Ishbaraning "Shuncha yil yashab, o'tin muzlaganini ko'rmab edim" degan hayratli so'zi qishning o'ta qattiqligini ta'kidlaydi. Bu jumla tabiat hodisasining odatiy emas, balki favqulodda darajada shiddatli bo'lganini ko'rsatadi. Parchaning oxirida esa dramatik manzaradan voqeaviy qismga o'tiladi: Ishbara va Bulutning Bilga xoqon huzuriga yo'l olishga chog'lanishi tasvirlanadi. Bu o'tish orqali tabiat manzarasi voqealarga kirish (ekspozitsiya) vazifasini bajaradi va asosiy syujet rivojiga zamin yaratadi.

"Bilga Xoqon" asarining asosiy g'oyalaridan biri – **xalq birligi**dir. Isajon Sulton ta'kidlashicha, xalqning birlashuvi davlatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun zaruriy

shart hisoblanadi. Birlik bo‘lmagan joyda parokandalik, zaiflashuv va tanazzul yuz beradi.

Ikkinchi muhim g‘oya – **bilim va tafakkur ustuvorligi**dir. Asarda hukmdorning kuchi faqatgina qurol yoki qo‘shin bilan emas, balki donolik, adolat va aql bilan mustahkamlanishi zarurligi uqtiriladi. Bu jihat o‘quvchilarni ilm olish, tafakkur qilish va donolikni qadrlashga undaydi.

Asar, shuningdek, **rahbarlik madaniyati**ni yoritadi. Rahbarning xalq oldidagi mas’uliyati, davlatni boshqarishda adolatli va vijdonli bo‘lishi zarurligi muallif tomonidan ta’kidlanadi. Shu tariqa, “Bilga Xoqon” bugungi zamon rahbarlari uchun ham o‘ziga xos ibrat manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Isojon Sultonning “Bilga Xoqon” asari nafaqat tarixiy shaxsning hayoti haqida, balki keng ijtimoiy-ma’naviy xulosalarga chorlovchi asar sifatida qimmatlidir. U yosh avlodni milliy o‘zlikni anglashga, tarixdan saboq olishga, birlik va vatanparvarlikka undaydi. Asarda ilgari surilgan g‘oyalar – birlik, bilim, adolat va rahbarlik madaniyati – bugungi jamiyat uchun ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu sababli “Bilga Xoqon”ni nafaqat adabiy, balki ma’naviy-ma’rifiy dastur sifatida ham baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. „Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi“ (en). *https://mininnovation.uz*. 2023-yil 2-sentyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 2-sentyabr.
2. FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI“. 2023-yil 2-sentyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 3-sentyabr.
3. *Madaminova Dilnura Bahodir qizi (2023-03-23). „ISAJON SULTONNING "BILGA XOQON" ROMANI“. SCHOLAR. 1-jild, № 7. 83–86-bet. doi:10.5281/zenodo.7763648.*
4. *Madaminova Dilnura Bahodir qizi (2023-04-18). „ISAJON SULTONNING "BILGA XOQON" ROMANI BADIIYATI“. doi:10.5281/zenodo.7843506.*
5. „O‘zbekistonlik adibga “Bilga xoqon” romani g‘oliblik keltirdi – Qoraqolpog'iston Axborot Agentligi“. *kknews.uz*. 2023-yil 2-sentyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 2-sentyabr.
6. Isajon Sulton.”Bilga xoqon” roman, qissalar va hikoyalar. Toshkent :“Factor books” nashriyoti, 2022.

7. Isajon Sulton nasri badiiyati: ilmiy maqolalar, taqriz, adabiy suhbatlar, maktublar/ to'plab nashrga tayyorlovchilar : G.Sattorova, M.Qo'chqorova. -Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
8. N.Rahmonov. Mangu bitiktoshlar ilhomi: https://uza.uz/posts/25169.
9. A.Haydarov. Jur'at jasorat va ijodiy mahorat mahsuli: https://uza.uz/posts/287869